Республиканский специализированный научно- практический медицинский центр нефрологии и трансплантации почки, Ташкент, Узбекистан

Актуальность: Несмотря на более чем полувековую историю изучения поражения почек при системной красной волчанке (СКВ), волчаночный нефрит (ВН) до нашего времени остается одним из наиболее тяжелых висцеральных проявлений болезни, приводящим к смерти или стойкому нарушению функции почек, которое может потребовать гемодиализа и/или трансплантации. Цель работы: Изучение особенностей и гендерных различий современного течения ВН и выявление факторов риска неблагоприятного почечного исхода. Материал и методы: ретроспективно проанализированы истории болезни 103 больных волчаночным нефритом, наблюдавшихся в клинике ТМА в отделении нефрологии период с 2000 по 2010 гг. (I-я, «архивная» группа). Клинико-лабораторные признаки заболевания у пациентов архивной группы сравнивали с «современной» группой больных ВН (107 пациентов), наблюдавшихся в клинике ТМА января 2010 г по декабрь 2022 г (II-я гр). Результаты: «Архивная группа» состояла из 89 женщин и 14 мужчин, из них у большинства (85% - 88 больных ВН) начало почечного поражения отмечено в возрасте до 40 лет, у 15 больных ВН (15%) - после 40 лет. «Современная» группа больных ВН включало 98 женщин и 9 мужчин, из них 80 больных (75%) начало заболевания отмечено до 40 лет, у 27 (25%) больных после 40. В «современной» группе острая СКВ диагностирована у 60 больных (56%), подострая - у 21 больных (20%), хроническая - у 26 больных (24%). Большинство мужчин «современной» группы (70%) имели острое течение СКВ и только один (7%) - подострое, в то время как у женщин частота острого течения СКВ была ниже (57%), а подострого - в 3 раза выше. Поражение почек у мужчин начиналось в среднем на 6 лет раньше по сравнению с женщинами: в $26,7 \pm 11,4$ лет и $32,2 \pm 12,3$ лет, соответственно ($p < 0,05$). Активность СКВ в группе мужчин и женщин по индексу SLEDAI в целом не различалась, составляя соответственно $17,3 \pm 6,3$ баллов и $16,9 \pm 6,8$ баллов ($p > 0,05$). Однако анализ структуры спектра составляющих его симптомов показал, что у мужчин его величина преимущественно формируется за счет поражения почек а у женщин - за счет большего вклада экстраренальных признаков СКВ. Заключение: Факторами риска прогрессирования ВН являются мужской пол, пролиферативные варианты ВН), АГ, наличие АФС, обострений ВН, их частота и функциональный тип, а также неэффективность иммуносупрессивной терапии. Больные с поражением почек при СКВ, особенно мужчины и с началом заболевания до 40 лет требуют многолетнего диспансерного наблюдения, обеспечивающего преемственность терапевтических рекомендаций и тщательный клинический и лабораторный контроль лечения для предупреждения рецидивов болезни.

EFFECT OF KIDNEY TRANSPLANTATION ON LEFT VENTRICULAR REMODELING AND RISK FACTORS FOR POSTTRANSPLANT LEFT VENTRICULAR HYPERTROPHY

Muxiddinova N. Z., Salyamova F.E., Khusanxodjaeva F.T.

Tashkent State Dental Institute,

*Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Nephrology
and Kidney Transplantation, Tashkent, Uzbekistan*

Introduction. Cardiovascular disease is a leading cause of mortality in patients with end-stage renal disease, even undergoing transplantation. Left ventricular hypertrophy (LVH) is the most common feature and an independent risk factor for cardiac complications in kidney transplant recipients. The aim of this study was to identify cardiac alteration after kidney transplantation and analyze predictors of the post-transplant LVH. Methods. Among 157 kidney transplant recipients in a multicenter cohort from 2017 to 2022, a total of 157 patients

who conducted echocardiography before and one year after transplantation were enrolled in this study. Echocardiographic findings and clinical parameters were evaluated. Results. Kidney transplantation significantly reduced mean left ventricular mass index (LVMI) from $128.8 \pm 47.2 \text{ g/m}$. The ejection fraction was improved ($59.4 \pm 8.0\%$ vs. $62.1 \pm 6.7\%$, $p < 0.001$). The prevalence of LVH by echocardiography significantly decreased (62.6% vs. 46.1% , $p = 0.001$). The prevalence of diastolic dysfunction, mitral and tricuspid regurgitation, and pulmonary hypertension also decreased. Pre-transplant lower hemoglobin level (OR 0.74, 95% CI 0.56-0.96, $p = 0.026$) and pre-transplant higher LVMI (OR 1.02, 95% CI 1.01-1.02, $p < 0.001$) were independently associated with persistent LVH after kidney transplantation. On the other hand, ejection fraction, diastolic dysfunction, underlying renal disease, albumin or cholesterol level, blood pressure, rejection, and allograft function were not correlated with post-transplant LVH. Conclusions. Cardiac morphology and function were significantly improved by kidney transplantation. Treatment of anemia might be crucial in regression and prevention of persistent LVH in kidney transplant recipients.

«HEALING REPORT» BY UTEIBOYDAK TLEUKABYLULY AND THE HEALING PROPERTIES OF SAUMAL AND KUMYS

Nazarbaiuly B., Massalimov E.

Astana Medical University of the Republic of Kazakhstan

Purpose of the study. Consider the value of the conclusions expressed in the «Healing report» on the sacred, food, healing drink of the population from Mare's milk – saumal, kumys at the level of today's medical research, show the advantages and effectiveness of recovery from chronic, common diseases and suggest scientific research. Materials and methods. Let us dwell on what data the research of the XXI century at the medical-biological, molecular level, with the best examples of modern science and technology, gave about saumal, kumys. As the healer Uteyboydak concluded, the properties that can «Heal the sick-sick», of course, are contained in saumal and kumys. Saumal is an active biological natural product with a bubbling, sweet taste, fast absorption, easy digestion. Scientists have concluded that saumal is very close in chemical composition and physical state to Mother's milk, even closer than the much-talked about goat's milk. Proteins, amino acids, fast-dissolving fat, oxygen and minerals necessary for the body such as calcium, sodium, phosphorus, potassium, iron, magnesium, bromine, vitamins C, A, B1, B2, B6, B12, E, PP, trace elements, about 80 biologically active substances are not found in other dairy products precisely in such a package. The content of only one vitamin C, 7 times higher than cow's milk. The appointment of natural remedies, including saumal, kombucha as a remedy, is becoming an important treatment method in almost all areas of Medicine. Saumal treatment in many advanced hospitals and sanatoriums of developed countries, including Europe and the USA, is an integral part of the complex treatment of patients with dry saumal, which is very convenient to use. Result and discussion. In Kazakh folk medicine, the use of kombucha for treatment has been continued since ancient times, when healers considered the healing drink to be a unique medicine that heals the internal organs of a person. Uteiboydak Tleukabyluly has repeatedly visited kumys during the «Shipagerlik Bayan». The peculiarity and healing properties of the unique drink, which gives healing and strength to the body, were left by the conclusions that can be compared with the results of modern research. Kumys has a comprehensive effect on the body. Increases the strength of the human body, improves physical condition, stimulates appetite. When you drink kumys, the red blood cells in the blood increase, the pulse rate increases, the blood circulation accelerates, the work of the blood vessels and the heart rate improves, so we recommend that you drink kumys not only when you are sick, but also for daily prevention. Conclusion. In conclusion, saumal and kumys, thanks to their natural nutrition and benefits, purity, being both food and treatment, prevent many diseases, have been studied at the international level in modern medicine, and special appointments have been given. In their era, vigilant folk healers were truly convinced of the need to use the healing drink for treatment, as well as food, which has not been interrupted since the time of the Saks. After studying the works that have come down to us for five centuries, we found out that Uteiboydak Tleukabyluly is one of them.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ВЕГЕТАТИВНОГО СТАТУСА С РАЗЛИЧНЫМИ СОМАТОТИПАМИ

Назаров Ч.Т., Муродов В.М.

ГОУ «Хатлонский государственный медицинский университет», Душанбе, Таджикистан

Авиценна в своей книге «Канон врачебной науки» большое внимание уделял выяснению взаимосвязей и взаимовлияния психического и соматического, а также различных систем организма между собой. В настоящее время одним из интегративных подходов, позволяющим осуществить комплексное рассмотрение различных функциональных систем в их взаимосвязи является соматотип человека. Известно, что конституция человека отражает комплекс индивидуальных, относительно устойчивых морфологических, физиологических и психических свойств организма, обусловленных наследственностью. Целью исследования явилось изучить состояние симпатического и парасимпатического отделов автономной нервной системы в зависимости от соматотипа. Материалы и методы исследования. Объектом исследований послужили 180 студентов второго курса ХГМУ. Состояние вегетативного статуса изучали при помощи статистических показателей вариативности сердечного ритма (ВСР). Для этого использовали биомышь. По каждому показателю ВСР выделены градации, отражающие сбалансированность отделов автономной нервной системы, а также доминирование одного из её отделов (парасимпатического и симпатического). При этом различали следующие типы вегетативного статуса: нормотонический, когда отмечается сбалансированность отделов автономной нервной системы; умеренную, выраженную и резко выраженную степень симпатикотонии и ваготонический тип. Соматотип исследуемых определяли по методике Б.Х.Хит и Дж.Е.Л.Картера [1968] на основе стандартного антропометрического измерения 11 признаков телосложения: длины и массы тела, поперечных диаметров надмыщелков плеча и бедра, окружности плеча и голени, жировых складок на передней и задней поверхностях плеча, на голени, подлопаточной и верхнеподвздошной областях. Результаты исследования. Сравнительный анализ показателей вегетативного статуса и соматотипов позволил выявить индивидуальные особенности их взаимодействия. Установлено, что изучаемые показатели вегетативного статуса статистически значимо различались у представителей разных соматотипов. При этом все изучаемые показатели указывали на наибольшее напряжение регуляторных механизмов (различная степень симпатикотонии) в группе эндоморфов: в данной группе отмечены наибольшие значения индекса напряжения, амплитуды моды и наименьшие значения вариационного разброса, среднеквадратичного отклонения, моды. В группе эктоморфов изучаемые показатели имели направленность на повышение тонуса парасимпатического отдела автономной нервной системы (ваготонический тип вегетативного статуса): снижение амплитуды моды, индекса напряжения с одной стороны и повышение вариационного разброса, среднеквадратичного отклонения, моды. В группе мезоморфов отмечается высокая вегетативная устойчивость – большинство изучаемых показателей указывают на нормотонический тип регуляции ритма (сбалансированность симпатического и парасимпатического отделов АНС). Таким образом, результаты исследования показывают, что соматотип значительно влияет на вегетативный статус и характер протекающих физиологических изменений организма. Различная степень симпатикотонии отмечена у представителей эндоморфного соматотипа; нормо- и ваготония более характерна у представителей мезо- и эктоморфного типов телосложения.

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОКАЗАНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ БОЛЬНЫМ С АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИЕЙ В УСЛОВИЯХ СЕМЕЙНОЙ ПОЛИКЛИНИКИ

Назарова Г.У., Бойкузиева М.Б.

Андижанский государственный медицинский институт, Андижан, Узбекистан

Цель: улучшить качество профилактики и лечения больных с артериальной гипертензией I-II степени в течение шести месяцев. Методы: По ходу проекта мы применяли анкетирование больных с помощью вопросника на наличие тонометров, знание об осложнениях, о предупредительных мерах АГ, принимаемых лекарственных препаратов. Мы просматривали записи на амбулаторных картах, брали интервью у больных во время консультации, осматривали аптеку на наличие гипотензивных средств. Результаты базового анкетирования показали, что больные имеют доступность купить лекарство и приобрести

их в любой аптеке; большинство больных не могут пользоваться тонометром; они не знают, как предупредить возникновение АГ и предотвратить осложнения; 56 % больных всё ещё употребляют лекарства такие, как дибазол, папаверин, адельфан. Анализы амбулаторных карт показали, что 60 % врачей предписывают лекарства, не руководствуясь клиническими рекомендациями (КР). В амбулаторных картах нет записей о повторных осмотрах, эффективности назначенного лечения. После анализа выявленных проблем, мы с командой запланировали внедрить изменения по некоторым направлениям. Мы обучили больных с АГ выявлению симптомов, осложнений и методике измерения артериального давления и раздали врачам поликлиники КР по АГ, обучили их использованию. Результаты: По ходу визитов пациентов с АГ в поликлинику члены команды проводили еще раз опрос и проверку по выявлению осложнений и правильного использования тонометра, оказания самопомощи при повышении АД и сравнивали результаты. Наблюдение за больными по методике тонометрии дали положительные результаты. 80 % больных правильно смогли провести тонометрию. Дополнительным вмешательством стало информирование врачей о стандартах лечения АГ. Результаты оценивались регулярно 1 раз в месяц, в течение 6 месяцев, начиная с ноября 2015 года. Процент врачей, предписывающих стандартное лечение для АГ, вырос от 2 (40%) до 4 (80%). Вмешательства дали хорошие результаты, и мы решили обучить всех медсестёр, чтобы они на регулярной основе обучали пациентов и их родственников. Для работы на участках мы создали школу гипертоников из обученных медсестёр и врачей. Вывод: По ходу нашей работы мы пришли к выводу, что непрерывная работа с больными повышает их доверия к медицинским работникам и принимаемым лекарствам, что непосредственно влияет на качества лечения, обучение больных приводит к улучшению качества работы поликлиники и облегчает работу медицинских работников, приобретение больными тонометров приводит к уменьшению визитов пациентов в поликлинику и улучшает самоконтроль за состоянием здоровья.

**ОИЛАВИЙ ПОЛИКЛИНИКА ШАРОИТИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ
ШАКЛЛАНТИРИШДА ЗАРАРСИЗ ОВҚАТЛАНИШ БЎЙИЧА ТАРҒИБОТ ИШЛАРИ
СИФАТИНИ ЯХШИЛАШ**

Назарова Г.У., Бойқўзиева М.Б.

Андижон давлат тиббиёт институти, Андижон, Ўзбекистон

Муаммо долзарблиги: Керагидан ортиқча рацион калорияси танани оғирлигини оширишга ва қонда ёғ тарқибини ошириб боришга олиб келади. Ҳозирги кунда анчагина илмий -тадқиқот ишлари бўлиб, унда керагидан ортиқча ҳайвон ёғларини ва сабзавотларни истеъмол қилиниши, уни сақланиши ва атеросклерозни ривожланиши орасидаги алоқани исбот қилишга кўра, ўт пуфаги, жигар ва бошқа овқатни ҳазм қиладиган органларда касалликларни ривожланишида тўғри овқатланишни роли катта эканлиги кўрсатилган. Мақсад: Олтинкўл тумани “Олтинкўл” ОШП (Оилавий шифокорлик пункти) аҳолиси орасида рационал овқатланишни тарғибот қилиш ишлари сифатини яхшилаш. Вазифалар: 1.ОШП худудида яшовчи аҳоли орасида овқатланишнинг саломатликка таъсири ҳақидаги билимларини ўрганиш. 2.Алоҳида нораціонал овқаланувчи гуруҳлар орасида касалланишни ўрганиш. 3.Рационал овқатланишга доир аҳоли учун тавсиялар ишлаб чиқиш. Материал ва услублар: Текширишлар 2022 йилнинг январ ойидан, 2022 йил октябр ойларида Олтинкўл тумани «Олтинкўл» Оилавий шифокорлик пункти худудида олиб борилди. Ишни олиб бориш жараёнида биз аҳоли маълумотларини аҳолининг амбулатор карталари Ф 025/У, диспансер назорати карталари Ф-030/У, ва бошқа ҳисобот формалари каби ҳужжатлардан фойдаландик. Аввало биз аҳолининг овқатланиш характери ва рационал овқатланиш ҳақидаги билимларини аниқлаш борасида махсус сўровномаларни ишлаб чиқдик. Сўровнома саволлари иловада келтирилган. Ишлаб чиқилган сўровномалар асосида тасодифий танлаш орқали ажратиб олинган 50 нафар киши орасида тадқиқотларни олиб бордик. Сўровномалар орқали ажратиб олинган нораціонал овқатланувчи кишилар орасида касалланишни ҳам ўрганиб чиқдик. Олинган натижаларимиз асосида хулосалар чиқардик. Бу текшириш ишларини бажаришда бизнинг командаларимиз яъни педагоглар ва Оилавий шифокорлик пункти шифокорлари ва ўрта тиббий ходимлар яқиндан ёрдам беришди. Натижа ва таҳлиллар: Олтинкўл

тумани «Олтинкўл» ОШПси жами 10500 нафар аҳолига хизмат кўрсатади. ОШП хизмат кўрсатувчи аҳолининг таркиби қуйидагича: аҳолининг 38,1 % ини болалар, 61,9% ини катта ёшлилар ташкил этади. Аёллар 49,7% ни, эркеклар эса 50,3% ни ташкил қилади. Кейинги вазифамиз аҳолининг рационал овқатланиш ҳақида билимлари ва овқатланиш характери ўрганиш юзасидан олинган маълумотларни таҳлил қилдик. Рационал овқатланиш ҳақидаги саволларимизга 17 (34%) киши тўлақонли овқатланиш деган, 6 (12%) киши организм талабига кўра ёқтирган таомини истеъмол қилиш деган, 27 киши (54%) қатъий илмий асосланган углевод, ёғлар ва оксилларнинг суткалик миқдори эътиборга олинган ҳолда витаминларга бой таомларни истеъмол қилиш деган жавобни беришган. Шунингдек, 37 киши (74%) оиламизда рационал овқатланмаймиз деган, 13 киши (26%) тўғри рационал овқатланамиз деган жавобни беришган. Аҳоли ўртасида соғлом овқатланиш бўйича режалаштирилган мавзулар бўйича тиббиёт ходимлари ва педагоглар ҳамкорликда маърузалар, амалий, кўргазмали дарслар ўтказилди. Қайта сўровнома ўтказилганда барча саволларимизга аҳолининг билим даражаси ошганлигини кўрдик. Хулосалар: 1. Олиб борилган ишлар натижасида шуни айтиш мумкинки, ОШП мудирлари ва ходимлари аҳоли ўртасида узлуксиз тиббий маданиятини ошириш ишлари олиб бориши керак экан.

ABU ALI IBN SINO KARANTIN HAQIDA VA KORONAVIRUS PANDEMIYASI DAVRIDA AHOLINING SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIGINI TA'MINLASHDA CHEKLOVCHI TADBIRLAR HAQIDA AHOLINING AYRIM FIKR MULOHAZALARI

Naimova Z.S.¹, Qurbonova H.A.², Mallaeva M.B.³ O'roqov B. Sh.⁴

1,2,3 - Samarqand davlat tibbiyot universiteti,

4 - Samarqand tumani 2-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi

Rezyume: Ibn Inoning asosiy tibbiy asarlari “Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fit-tibb») – ensiklopedik xarakterdagi asar bo‘lib, unda qadimgi davr mediklarining ko‘rsatmalari arab meditsinasining yutuqlari bilan o‘zaro qayta ishlangan. “Qonun”da Ibn Sino kasalliklar allaqanday mayda bo‘laklar oqibatida paydo bo‘lishini ko‘rsatgan. U birinchi bo‘lib chechakning yuqumliligiga e‘tibor qaratgan, vabo va o‘latning farqini aniqlagan, moxo‘v kasalligining boshqalardan farqini ko‘rsatib, unga izoh bergan va boshqa bir qator kasalliklarni o‘rganib chiqqan, karantin haqida ma‘lumot bergan. Butun dunyoda koronavirusga qarshi kurashishda Abu Ali ibn Sino ixtiro qilgan usuldan foydalanilmoqda. Aktualligi: Sanitariya-epidemiologiya xizmati aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun javobgar bo‘lgan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Uning qarorlari davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Sanitariya-gigiena tadbirlari va epidemiyaga qarshi tadbirlar yuqumli va parazitar kasalliklar paydo bo‘lishining hamda tarqalishining oldini olishga va ularni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy, ma‘muriy, muhandislik-texnik, tibbiy-sanitariya chora-tadbirlari hamda boshqa chora-tadbirlar yig‘indisi bo‘lib, sanitariya-epidemiologik vaziyat aholi yashayotgan muhitining va sog‘ligining muayyan hududdagi, ko‘rsatilgan aniq vaqtdagi holatini yaxshilash, insonga u yashayotgan muhitning biologik omillari ta‘sir ko‘rsatishi hamda yuqumli va parazitar kasalliklar paydo bo‘ladigan va tarqaladigan inson kasalliklarini oldini olishga qaratilgan tadbirlardan biri cheklovchi tadbirlar-karantin. O‘zbekiston Respublikasi hududining sanitariya muhofazasi sanitariya-karantin nazoratini amalga oshirish va cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etish yo‘li bilan ta‘minlanadi. Butun dunyoda koronavirusga qarshi kurashishda Abu Ali ibn Sino ixtiro qilgan usuldan foydalanilmoqda. Hozirda jahon miqiyosida keng qo‘llanilayotgan epidemiyani cheklash usuli - karantin buyuk olim va mutaffakkir ibn Sino tomonidan o‘ylab topilgan va ilmiy asoslab berilgan. Sanitariya-karantin nazorati davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi tegishli organlar tomonidan belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o‘tish punktlarida amalga oshiriladi. Maqsad: 2019-yil oxirida koronavirus omma salomatligiga solgan tahdidi bois, Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan dunyo bo‘ylab favqulodda holat e‘lon qilindi. Karantin kasallikdan ximoyalaniшни eng asosiy shartlaridan biri bu o‘z o‘zini izolyasiya qilishdir. Karantin tadbirlarini joriy etish

bilan kasallik kechishining yuktirish xolatini kamaytirish mumkin edi. Karantin [ital. quarantena–qirq kun], karantinlash– o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishini cheklashga qaratilgan epidemiyaga qarshi ma‘muriy va sanitariya tadbirlari majmui. Cheklovchi tadbirlar (karantin) - yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakatlanishining cheklanishini nazarda tutadigan ma‘muriy, tibbiy-sanitariya chora-tadbirlari va boshqa chora-tadbirlarning aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta‘minlashdagi ahamiyatini va aholining karatinga nisbatan fikr mulohazalarini o‘rganish. Tekshirish usullari va materiallar: Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta‘minlashda cheklovchi tadbirlar –karantin davrida aholining ayrim fikr mulohazalari bilish uchun aholi orasida anketalash usulida ijtimoiy so‘rovnoma olib borildi. So‘rovnomada qatnashganlar: 6%- Erkak |(15-17 yosh), 3%- Ayol |(15-17 yosh), 18%- Erkak |(18-24 yosh), 10%- Ayol |(18-24 yosh), 24%- Erkak (25-34 yosh), 13% Ayol (25-34 yosh), 11%- Erkak | (35-44 yosh), 7%- Ayol (35-44 yosh), 4%- Erkak (45-64 yosh), 4% Ayol |(45-64 yosh). Anketa savolariga javoblar o‘rganib chiqilib, tahlil qilindi. Natijalar va muhokama: Ijtimoiy masofa saqlash bilan bog‘liq qaysi choralarga amalga qilyapsiz? Savoliga javob: 36%- Uydan chiqmayapman. 47%- Hayotiy ehtiyoj uchun zarur ishlar bilangina uydan chiqyapman (apteka, do‘kon va boshqa). 15%- Avvalgidek yashayapman, faqat niqob taqish va qo‘limni tez-tez yuvishga odatlandim. 2%- Hech qanday choralarga amal qilmayapman. Karantin davrida uyda nima bilan mashg‘ul bo‘lyapsiz? 48%- Ko‘p vaqtimni oilam bilan birga o‘tkazyapman, 13%- Anchadan beri qiziqib yurgan narsamni o‘rganishga kirishdim, 11%- Ovqat eb, uxlayapman, 5%- Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanyapman, 14%- Hech narsa, chunki vaqt yo‘q, ish ham ko‘paydi, 9%- Hech narsa, chunki hech narsaga ishtiyiq yo‘q. Karantin davrida ro‘zg‘or uchun zarur bo‘lgan birlamchi mahsulotlarni xarid qilishda turmush tarzingiz o‘zgardimi? 15%- ko‘chaga kamroq chiqish uchun bir oyga etadigan oziq-ovqat mahsulotlari sotib olyapman; 42%- ko‘chaga kamroq chiqish uchun bir haftaga etadigan oziq-ovqat mahsulotlari sotib olyapman; 17%- ko‘chaga kamroq chiqish uchun uch kunga etadigan oziq-ovqat mahsulotlari sotib olyapman; 8%- karantinga qaramasdan, har kuni oziq-ovqat mahsulotlari sotib olyapman; 18%- ko‘chaga kamroq chiqish maqsadida ko‘plab odatiy oziq-ovqat mahsulotlaridan voz kechdim. Maktab, oliy va qo‘shimcha ta‘lim tizimi epidemiyadan so‘ng onlayn shaklda davom etishini istaysizmi? 20%- Ha, bu zamonaviy va qulay, 60%- Yo‘q, an‘anaviy ta‘lim usuli tarafdoriman, 8%- Ha, agar o‘qituvchi va sinfdoshlar bilan o‘zaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot imkoni bo‘lsa, 12%- Ha, agar o‘quv platformalarining sifati oshsa. Koronavirusga test topshirib ko‘rishni xohlaringiz? 53%- Ha, test topshirishni istayman (hozir O‘zbekistondaman), 40%- Yo‘q, test topshirishni xohlamayman (hozir O‘zbekistondaman), 4%- Test topshirdim (ayni vaqtda O‘zbekistonda yashayapman), 1%- Hozir chet eldaman, test topshirishni istayman, 1%- Xorij davlatidaman, test topshirish istagim yo‘q. 1%- CHet mamlakatdaman, test topshirdim, 7%- Hayot tarzim avval qanday bo‘lsa, hozir ham shunday. Mamlakatda joriy etilgan karantin munosabati bilan: 18%- uyda masofadan turib ishlayapman; 21%- ishxonaga qatnab ishlayapman; 7%- o‘z hisobimdan mehnat ta‘tiliga chiqarildim; 7%- haq to‘lanadigan mehnat ta‘tilidaman; 21%- ishxonamiz vaqtincha yopildi, ishlayapman; 26%- so‘rov menga taalluqli emas. Nafas a‘zolarini himoya qiluvchi qanday vositalardan foydalanyapsiz? 34%- Dokali niqob (ko‘p marta ishlatishga mo‘ljallangan), 27%- Matoli niqob (ko‘p marta ishlatishga mo‘ljallangan), 18%- Jarrohlik niqobi (bir martalik), 4%- Respirator, 6%- Hech narsadan foydalanmayapman. Xulosa: O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risidagi” (26.08.2015 y. N O‘RQ-393) qonunida 5-bob, 31-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududining sanitariya muhofazasi bu aholi uchun xavf tug‘diruvchi yuqumli va parazitlar kasalliklarining kirib kelishi hamda tarqalishining oldini olishga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududiga inson uchun xavf tug‘diruvchi tovarlar, kimyoviy, biologik va radioaktiv moddalar hamda yuklar olib kirilishining oldini olishga qaratilgan tadbirlar majmui-karantin o‘z o‘zini izolyasiya kilish kasallikdan himoyalashning eng asosiy shartlaridan biri, 2-bob 4-modda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, sanitariya-gigiena tadbirlarini va epidemiyaga qarshi tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish, karantin tadbirlarini joriy etish bilan kasallik kechishining yuqtirish holatini kamaytirishi mumkin ekanligini ko‘rsatdi.

IBN SINONING TABIBLIK FAOLIYATI DAVRIDA VA KORONAVIRUS KARATINI DAVRIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI KENG TADBIQ ETISH CHORA-TADBIRLARI VA UNGA AMAL QILISH HAQIDA

Naimova Z.S.¹, Qurbonova H.A.², Mallaeva M.B.³ O'roqov B. Sh.⁴

1,2,3 - Samarqand davlat tibbiyot universiteti,

4 - Samarqand tumani 2-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi

Ibn Sino amaliy tibbiyot haqida so'zlab, uning asosiy vazifasi kishilar salomatligini saqlashdan iborat, deydi. U o'zining tabiblik faoliyatida bu vazifani birinchi o'rinda qo'yib, odamlar sog'lig'ini saqlash va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan ko'pmuhim tadbirlarni ishlab chiqqan va ularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib bergan. Ibn Sino sog'liqni saqlash ishini san'at deb ataydi. Uning vazifasi har xil foydali tadbirlarni amalga oshirib, odamlarni tabiiy o'lim yoshiga yetkazish deb ta'kidlaydi. Ibn Sino bu tadbirlardan eng muhimi badantarbiya (jismoniy harakatlar), deb hisoblagan. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarga ovqat tadbiri va uyquni qo'ygan. Aholining sog'lom turmush tarzi madaniyatini yuksaltirish chora tadbirlarini avvalo, oiladan boshlash lozim. Sog'lom turmush tarzi komponentlariga amal qilish yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olishda asosiy omillardandir, shuning uchun unga xar qandai sharoitda unga amal qilish shart. O'zbekiston Respublikasida koronavirusning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish yuzasidan keng ko'lamlil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maqsad: Inson uchun havfli bo'lgan yuqumli kasalliklar, jumladan koronavirus paido bo'lishi va tarqalishi sharoitida tibbiy o'sindagi majburlov chorasini qo'llash qoidalari kiritildi.. Ular natijasida yuzaga keladigan yuqumli kasalliklar, asab kasalliklarining oldini olishda sog'lom turmush tarzi komponentlariga amal qilish asosiy profilaktik omil ekanligini yrganish. Tekshirish usullari va materiallar: Aholining sanitariya epidemiologik o'soishatligini ta'minlashda cheklovchi tadbirlar –karantin davrida aholining sog'lom turmush tarziga amal qilishidagi airim fikr mulohazalari bilish uchun aholi orasida on-lain usulida ijtimoiy so'rovnomalar olib borildi. So'rovnomada qatnashganlar: 6%- Erkak (15-17 yosh), 3%- Ayol (15-17 yosh), 18%- Erkak (18-24 yosh), 10%- Ayol (18-24 yosh), 24%- Erkak (25-34 yosh), 13% Ayol (25-34 yosh), 11% - Erkak (35-44 yosh), 7%- Ayol (35-44 yosh), 4%- Erkak (45-64 yosh), 4% Ayol (45-64 yosh). Natijalar va muhokama: Anketa savollariga javoblar yrganib chiqilib, tahlil qilindi. Sog'lom ovqatlanish tarzi bo'iicha nimalarga amal qilayapsiz? 18% - qovurilgan va yengil taomlarni kam eyapman, 18% - ko'proq sabzavot eyapman, 6% - shakar iste'mol qilishni tyhtatdim, 4% - pishiriq va qandolat maxsulotlaridan tiildim, 6% - taomlar tuzi pastroq bylshiga xarakat qilyapman, 11% - gazli ichimliklarni tyhtatdim, 37% - anchadanberi to'gri ovqatlanish tartibiga o'tganman. Karantin davrida ro'zgor uchun zarur bo'lgan birlamchi maxsulotlarni harid qilishda turmush tarzingiz yzgardimi? 15% - ky'chaga kamroq chiqish uchun bir oiga etadigan oziq-ovqat maxsulotlari sotib olyapman; 42% - ko'chaga kamroq chiqish uchun bir xaftaga etadigan oziq-ovqat mahsulotlari sotib olyapman; 17% - ko'chaga kamroq chiqish uchun uch kunga etadigan oziq-ovqat maxsulotlari sotib olyapman; 7-8% karantinga qaramasdan, xar kuni oziq-ovqat maxsulotlari sotib olyapman; 18% - ko'chaga kamroq chiqish maqsadida ko'plab odatii oziq-ovqat mahsulotlaridan voz kechdim. Ruhiy holatingizni qandai baxolaisiz? 50% - xar doimgidek, 30% - bir oztashvishli, 7% - kuchli tashvishdaman, 4% - deyarli vahimadaman, 9% - bilmaiman. Agar karantinni oila davrasida o'tkazayotgan bo'lsangiz, munosabatlarda nimalar o'zgardi? 16% - bir-birimizni yahshiroq tushuna boshladik, 29% - oilamizni ko'proqqadrlai boshladik, 13% - janjal ky'paidi, 3% - ajrashish va boshqa hech qachon ko'rishmaslik istagi paido bo'ldi, 39% - hech narsa o'zgarmadi. Nafas a'zolarini ximoya qiluvchi qandai vositalardan foidalanyapsiz? 34% - dokali niqob (ky'p marta ishlatishga myljallangan), 27% - matoli niqob (ko'p marta ishlatishga myljallangan), 18% - uch qatlamli tibbiy niqobi (bir martalik), 11% - jarroxlik niqobi (bir martalik), 4% - respirator, 6% - hech narsadan foidalanmayapman. Epidemiya davrida o'zingizni qaisiodamlar toifasiga mansub deb hisoblaisiz? 26% - boshqalarga ko'proq erdam berishga xarakat qilyapman, 11% - yangi biznes eki biznes-loiixa ustida isholib borayapman, 6% - boshqalardan erdam kutayapman, 57% - hayot tarzini avval qandai bo'lsa, hozir ham shundai.

ABU ALI IBN SINO KARANTIN HAQIDA VA KORONAVIRUS PANDEMIYASI DAVRIDA AHOLINING SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIGINI TA'MINLASHDA CHEKLOVCHI TADBIRLAR HAQIDA AHOLINING AYRIM FIKR MULOHAZALARI

Naimova Z.S., Qurbonova H.A., Mallaeva M., B.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Ibn Inoning asosiy tibbiy asarlari “Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fit-tibb») – ensiklopedik xarakterdagi asar bo‘lib, unda qadimgi davr mediklarining ko‘rsatmalari arab meditsinasining yutuqlari bilan o‘zaro qayta ishlangan. “Qonun” da Ibn Sino kasalliklar allaqanday mayda bo‘laklar oqibatida paydo bo‘lishini ko‘rsatgan. U birinchi bo‘lib chechakning yuqumliligiga e‘tibor qaratgan, vabo va o‘latning farqini aniqlagan, moxo‘v kasalligining boshqalardan farqini ko‘rsatib, unga izoh bergan va boshqa bir qator kasalliklarni o‘rganib chiqqan, karantin haqida ma‘lumot bergan. Butun dunyoda koronavirusga qarshi kurashishda Abu Ali ibn Sino ixtiro qilgan usuldan foydalanilmoqda. Sanitariya-epidemiologiya xizmati aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun javobgar bo‘lgan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Uning qarorlari davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Sanitariya-gigiena tadbirlari va epidemiyaga qarshi tadbirlar yuqumli kasalliklar paydo bo‘ladigan va tarqaladigan inson kasalliklarini oldini olishga qaratilgan tadbirlardan biri cheklovchi tadbirlar- karantin. O‘zbekiston Respublikasi hududining sanitariya muhofazasi sanitariya-karantin nazoratini amalga oshirish va cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etish yo‘li bilan ta‘minlanadi. Butun dunyoda koronavirusga qarshi kurashishda Abu Ali ibn Sino ixtiro qilgan usuldan foydalanilmoqda. Hozirda jahon miqyosida keng qo‘llanilayotgan epidemiyni cheklash usuli - karantin buyuk olim va mutaffakkir ibn Sino tomonidan o‘ylab topilgan va ilmiy asoslab berilgan. Sanitariya-karantin nazorati davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi tegishli organlar tomonidan belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o‘tish punktlarida amalga oshiriladi. Maqsad: koronavirus omma salomatligiga solgan tahdidi bois, Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan dunyo bo‘ylab favqulodda holat e‘lon qilindi. Karantin kasallikdan ximoyalaniшни eng asosiy shartlaridan biri bu o‘z o‘zini izolyasiya kilishdir. Karantin [ital. quarantena–qirq kun], karantinlash– o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishini cheklashga qaratilgan epidemiyaga qarshi ma‘muriy va sanitariya tadbirlari majmui. Cheklovchi tadbirlar yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan, cheklanishini nazarda tutadigan ma‘muriy, tibbiy-sanitariya chora-tadbirlarni ta‘minlashdagi ahamiyatini va aholining karatinga nisbatan fikr mulohazalarini o‘rganish. Tekshirish usullari va materiallar: Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta‘minlashda cheklovchi tadbirlar –karantin davrida aholining ayrim fikr mulohazalari bilish uchun aholi orasida anketalash usulida ijtimoiy so‘rovnoma olib borildi. Natijalar: Anketa savolariga javoblar o‘rganib chiqilib, tahlil qilindi. Xulosa: O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risidagi” (26.08.2015 y. N O‘RQ-393) qonunida 5-bob, 31-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududining sanitariya muhofazasi bu aholi uchun xavf tug‘diruvchi yuqumli va parazitlar kasalliklarining kirib kelishi hamda tarqalishining oldini olishga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududiga inson uchun xavf tug‘diruvchi tovarlar, kimyoviy, biologik va radioaktiv moddalar hamda yuklar olib kirilishining oldini olishga qaratilgan tadbirlar majmui-karantin o‘z o‘zini izolyasiya kilish kasallikdan himoyalanišning eng asosiy shartlaridan biri, 2-bob 4-modda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, sanitariya-gigiena tadbirlarini va epidemiyaga qarshi tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish, karantin tadbirlarini joriy etish bilan kasallik kechishining yuqtirish holatini kamaytirishi mumkin ekanligini ko‘rsatdi.

КОРОНОВИРУС КАРАТИНИ ДАВРИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ КЕНГ ТАДБИҚ ЭТИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ВА УНГА АМАЛ ҚИЛИШ ҲАҚИДА

Наимова З.С.¹, Қурбонова Ҳ.А.², Маллаева М., Б.³ Ўроқов Б. Ш.⁴

1,2,3 - Самарқанд давлат тиббиёт университети

4 - Самарқанд тумани 2-ихтисослаштирилган умумтаълим мактаби

Аҳолининг соғлом турмуш тарзи маданиятини юксалтириш чора тадбирларини аввало, оиладан бошлаш лозим. Соғлом турмуш тарзи компонентларига амал қилиш юқумли ва юқумли бўлмаган касалликларни олдини олишда асосий омиллардандир, шунинг учун унга ҳар қандай шароитда унга амал қилиш шарт. Ўзбекистон Республикасида коронавируснинг кириб келиши ва тарқалишининг олдини олиш юзасидан кенг қўлланма чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Мақсад: коронавирус пайдо бўлиши ва тарқалиши шароитида тиббий чеклов чорасини қўллаш қоидалари касалликнинг олдини олишда соғлом турмуш тарзи компонентларига амал қилиш асосий профилактик омил эканлигини ўрганиш. Текшириш усуллари ва материаллар: Аҳолининг санитария эпидемиологик осойишталигини таъминлашда чекловчи тадбирлар – карантин даврида аҳолининг соғлом турмуш тарзига амал қилишидаги айрим фикр мулоҳазалари билиш учун аҳоли орасида он-лайн усулида ижтимоий сўровнома олиб борилди. Натижалар ва муҳокама: Анкета саволарига жавоблар ўрганиб чиқилиб, таҳлил қилинди. Хулоса: Карантин даврида уйда соғлом яшаш тарзи компонентларига амал қилиш, аҳолининг тиббий маданиятининг ошганини кўрсатди ва янада ошириш учун Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Соғлом турмуш тарзини кенг татбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони асосида: аҳоли ўртасида соғлом овқатланиш маданиятини кенг тарғиб қилиш, тартибсиз ва кечки уйқу олдида овқатланиш одатларидан воз кечиш; санитария-гигиена қоидаларига риоя этилишини оилалар, маҳаллалар, мактабгача таълим ва умумтаълим муассасалари даражасида соғлом турмуш тарзининг ажралмас қисми сифатида тарғиб қилиш; аҳоли турли гуруҳларининг соғлом овқатланишга бўлган эҳтиёжларини қондиришни таъминлайдиган шарт-шароитлар яратиш, таркибида туз, қанд ва ёғ микдори кўп бўлган ҳамда хамирли таом ва ширинликларни, нон маҳсулотларини истеъмол қилишни қисқартириш, зарарли одатлардан, хусусан, алкоголь ва тамаки маҳсулотларини истеъмол қилишдан воз кечиш йўли билан касалликка чалиниш, ортиқча вазн ҳолатлари (семизлик) ва бевақт вафот этишни камайтиришнинг асосий омиллари эканлигини тарғиб этишни тақозо қилади. Бутун дунёда Ибн Синонинг кўпгина илмий ишлари, асарларидан фойдаланиб соғлом турмуш тарзи компонентларини ўрганиб, амал қилишмоқда.

НАССР ХАЛҚАРО ТИЗИМИНИ ҚўЛЛАШ ЙўЛИ БИЛАН ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИДАН БАКТЕРИАЛ ЗАҲАРЛАНИШНИ ОЛДИНИ ОЛИШ

Намозбоева М., Файзибоев П.Н., Соатов М., Ибрагимов П.

Самарқанд давлат тиббиёт университети, Самарқанд, Ўзбекистон

Озиқ-овқат, шу жумладан қандолат маҳсулотларини ишлаб чиқариш саноати агросаноат комплексининг энг муҳим йўналишларидан бўлиб, уларнинг сифати ва ҳавфсизлигини таъминлаш тизимини такомиллаштириш, давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Озиқ-овқат маҳсулотларининг ифлосланиши дунёдаги барча давлатларда жуда катта иқтисодий оқибатларга олиб келади ва одамлар саломатлигига салбий таъсир кўрсатади. Маълумки, озиқ-овқат, қандолат маҳсулотлари инсон ҳаёти учун энг муҳим экологик омил бўлиб, у нафақат киши организмидеги нормал ўсиши ва ривожланиши, балким энергия манбаи бўлиб ҳам хизмат қилади, озиқ-овқат таркибидаги оксиллар, ёғлар, карбонсувлар, витаминлар минерал каби моддалар инсонни жисмоний ва ақлий иш қобилиятини, саломатлигини ҳамда узоқ умр кўришини ҳам таъминлайди. Шунинг учун ҳам овқатланиш экологиясининг вазифаси қабул қилинадиган овқат таркибида организм учун зарур бўлган оксиллар, ёғлар, карбонсувлар, витаминлар минерал моддаларнинг етарли ва экологик тоза бўлишини таъминлашга қаратилгандир. Озиқ-овқат, қандолат маҳсулотлари тайёрлаш корхоналарида хом ашё ва тайёр

маҳсулотларнинг лабораторияда олинган физик-кимёвий ва микробиологик текширув натижалари ва баённомалари, статистика маълумотлар ҳамда ўтказилган сўровномалар ҳисобланади. Аҳолининг хавфсиз овқатланишини таъминлашда Ўзбекистон Республикасининг "Озиқ-овқат маҳсулотлари сифати ва хавфсизлиги тўғрисида" қонунга мувофиқ иш олиб борилади. Бу қонун 1997 йилда қабул қилинган бўлиб, савдо соҳасидаги глобаллашув, қишлоқ хўжалиги ва саноат технологияларини ривожлантириш, ички талабларнинг ортиши бу ўзбек халқини ва хорижий истемолчиларни экологик тоза маҳсулотлар билан таъминлайди, шу билан бирга озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда янги стратегик ёндашувларни талаб қилади. Ўзбекистон Республикасида жойлашган озиқ-овқат ва қандолат маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи йирик ва кичик корхоналардан сўровномалар ўтказиш, тайёр ва хом ашё маҳсулотлари лаборатория текширувларини НАССР тизимини қўллаш орқали ўрганиб борилади. 1980 йил Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти НАССР тизимини барча озиқ - овқат маҳсулотлари учун жорий этиш заруриятини белгилаб берди ва 1990 йил Европа қитъаси учун қўлланма ишлаб чиқилиб, 1993 йил расмий ҳужжат сифатида қабул қилинди. Озиқ-овқат хом ашёларини ишлаб чиқишдан тортиб, токи истеъмолчининг дастурхонигача бўлган босқичлар муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ҳар бир нозик назорат нуқтаси учун НАССР тизимида издан чиқиши мумкин бўлган ҳолатлар ва уларни изга солишга доир аниқ ҳаракат алгоритми ишлаб чиқилади, нутрициология соҳасидаги янги билимларни, стоматология йўналишида оғиз бўшлиғини салбий омиллардан ҳимоя қилиш борасида талаб даражасига жавоб берадиган озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришга имконият яратилади. Озиқ-овқат, қандолат маҳсулотлари тайёрлаш борасида НАССР тизимини қўллаш яхши натижа беради, аммо бу борада янги меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқиб санитария-эпидемиология назорати марказларида; Тошкент тиббиёт академиясида тадбиқ этилса мақсадга мувофиқ бўлади. ХУЛОСА: Ишлаб чиқаришни яратиш ва жорий этиш бўйича илмий тадқиқот ишларини кенгайтириш, озиқ-овқат маҳсулотларининг янгидан-янги турларини яратиш, касалликлар ва зарарқундаларга қарши курашишнинг самарали усулларини ишлаб чиқишга эътибор қаратиш керак. Озиқ-овқат, қандолат маҳсулотларининг инсон саломатлигига кўрсатадиган бактериал, салбий таъсири сабабларини ўрганишда, келиб чиқадиган касалликларнинг олдини олиш мақсадида ишлаб чиқаришнинг барча жараёнлари ишлаб чиқарувчи томонидан доимий назоратда бўлиши шарт.

YUZ-JAG' SOXASI FURUNKUL VA KARBUNKULLARNING UCHRASH CHASTOTASI

Narziyeva D.B., Raxmonova N.U.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Yuz-jag' soxasining o'tkir yallig'lanish kasalliklari orasida, ayniqsa, furunkul va karbunkulalar aloxida e'tiborga loyiqdir, ularning soni so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. So'nggi yillardagi nashrlarda furunkul va karbunkulalar klinik ko'rinishida sezilarli o'zgarishlar qayd etildi. Yiringli o'choqning lokalizatsiyasiga qarab, kasallikning atipik, torpid kechishi tez-tez uchramoqda. Kasallik yuzning o'rta va yuqori soxalarida joylashganda asoratli kechadi. Ko'pincha burun va yuqori labning furunkularini davolashda turli xil asoratlar yuzaga kelishi mumkin, yuz venalarining tromboflebiti, kavernozi sinus trombozi, sepsis va boshqalar. Ushbu asoratlarning oldini olish juda muhimdir. Furunkul yoki karbunkulning paydo bo'lishiga teri gigiyenasiga rioya qilmaslik, uy-joy va ishlab chiqarishdagi yomon sharoitlar, sovuq qotish, mikrotrauma, gipo - avitaminoz, sil, diabet, anemiya, tonzillit, gripp, oshqozon-ichak kasalliklari va boshqa kasalliklar tufayli organizm himoya funksiyalarining zaiflashishi sabab bo'ladi. Doimiy ravishda yomonlashib borayotgan ekologik sharoitlar, immunologik reaktivlikning o'zgarishi va hamroh kasalliklari (diabet, ateroskleroz, yurak-qon tomir etishmovchiligi, siydik-ayirish tizimining kasalliklari) bo'lgan bemorlar sonining ko'payishi, shuningdek, zamonaviy antibakterial va yallig'lanishga qarshi dorilarning ommaviy nazoratsiz va ko'pincha savodsiz qo'llanilishi mikroblar assotsiatsiyasining tabiiy biologik muvozanatning buzilishiga va shartli patogen mikroflorani ortishiga olib kelmoqda. Ushbu omillar ta'siri ostida og'ir kechadigan yiringli yallig'lanish jarayonlarining paydo bo'lishi, surunkali va jiddiy asoratlarni rivojlanishi – yuz vena tomirlari tromboflebit, kavernozi sinus trombozi, septik pnevmoniya, sepsis, meningit, meningoensefalit, mediastinit va boshqalar soni oshdi. Furunkullarni asosan Staphylococcus aureus chaqiradi va ko'pincha charchash, asabiylashish, metabolik kasalliklar asosida yuzaga keladi. Infeksiyani

qo'zg'atuvchilariga gram-musbat koagulazonegativ stafilokokklar va streptokokklar: staphylococcus aureus, staphylococcus epidermidis, streptococcus pyogenes, streptococcus equi, streptococcus agalactiae, gramm-manfiy katta guruh bakteriyalar (pseudomonas aeruginosa, escherichia coli, klebsiella spp., serratia spp., acinetobacter spp.), shuningdek, anaerob noklostridial mikroorganizmlar (bakteroidlar, fusobakteriyalar, peptostreptokokklar va boshqalar) kiradi. 2016 -2020 yillarda Samarqand shahar tibbiyot birlashmasining yuz-jag' xirurgiyasi bo'limida davolangan Samarqand shahri aholisining furunkul va karbunkul bilan kasallanishini tahlil qilar ekanmiz, biz quyidagi ma'lumotlarni oldik. Ushbu davrda yuzning furunkul va karbunkullari bo'lgan bemorlarning umumiy soni 161 ta edi. Ulardan 54 nafari ayollar, 93 nafari erkaklar va 14 nafari bolalar. Asosan bemorlar yosh va mehnatga layoqatli yosh 18-49(61%) yoshda edi. Ulardan 28,6% furunkulli va 71,4% karbunkulli bemorlardir. Kasallikning mavsumiyligini tahlil qilganda, bemorlarning aksariyati bahor-kuz davrida tibbiy yordam olish uchun murojaat qilganligi aniqlandi. Tadqiqotchilar T. K. Supiev va I. S. Klimova bu haroratning mavsumiy o'zgarishi va tananing immunologik holatidagi xarakterli o'zgarish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Asosan, bemorlar quyidagi shikoyatlar bilan murojaat qilishdi: yumshoq to'qimalarning shishishi, qizarishi va og'rig'i, tana harorati ko'tarilishi, darmonsizlik, uyqusizlik, ishtahaning yo'qolishi va bosh og'rig'i. Ko'pincha furunkul va karbunkul o'ng tomonida soch follikulalari va yog' bezlari yaxshi rivojlangan terida uchradi. Yallig'lanish asosan 25% burun soxasida, yuqori labda 18%, pastki labda 13%, yonoq soxasida 12,4%, iyak, peshona, yonoq, ko'z osti va chakka soxalarda – 5%, quloq oldi va jag' osti soxalarda – 3,1% joylashgan. Xulosa qilib aytganda, yuz-jag' soxasi furunkul va karbunkullarini kompleks davolash asosi odatda, etiotropik, patogenetik va simptomatik davolash bilan birgalikda yuz-jag' soxasining anatomo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi muximdir.

KURKUMA O'SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI

Negmatova M. U.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, Termiz, O'zbekiston

Kurkuma o'zining shifobahsh xususiyatlari bilan yuzlab yillar davomida ma'lum bo'lgan o'simlikdir. Kurkumaning eng ko'p ishlatiladigan qismi ildizpoya yoki yer osti poyasidir. Bu o'simlikning eng mashhur qo'llanilishi aromatik ziravorlar (o'simlik ildizpoyasini maydalash orqali olinadi), shu jumladan mashhur o'zbek palovida zarchava deb nomlanadigan ziravor sifatida ishlatiladi. Bu Osiyo mamlakatlarida va ayniqsa Hindistonning an'anaviy taomlarida ham qo'llanadi. Kurkuma bir nechta xususiyat va afzalliklarga ega, ulardan ba'zilari ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Quyida biz eng yaxshi ma'lum bo'lgan ba'zi afzalliklar va xususiyatlarini tasvirlaymiz; 1. Yallig'lanishga qarshi xususiyatga ega. Hayvonlar modellarida o'tkazilgan bir nechta tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kurkumani qo'llash yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega, yallig'lanish prostaglandinlarini rag'batlantiruvchi sitokinlar chiqarilishini kamaytiradi. Shu ma'noda, artrit, shish yoki granulomalarni kamaytirishda samarali ekanligi isbotlangan. 2. O'smaga qarshi ta'siri. Bu jihatdan mo'jizaviy mahsulot bo'lmasa-da, kurkumani qo'llash saratonga qarshi ta'sirga ega bo'lib, o'sma nekrozi omili va turli interleykinlar ifodasini bostiradi va shu bilan neoplazmalarning o'sishini va o'smalarning o'sishini kamaytiradi. 3. Qiziqarli antioksidantlar. Kurkumaning yana bir isbotlangan xususiyati uning antioksidant faolligidir. Hujayra qarishini keltirib chiqaradigan erkin radikallarning ishlab chiqarilishini va ta'sirini kamaytiradi. Bu ta'sirlar qon tarkibidagi gemoglobin va lipidlarning oksidlanishidan himoya qiladi. Shuningdek, beta-amiloid ko'rinishini kamaytirish orqali Altsgeymer kasalligiga qarshi himoya ta'sirini ham o'z ichiga oladi. 4. Gipoglikemik va diabetga qarshi vosita. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kurkuma qon shakarini kamaytiradigan ta'sirga ega. Boshqacha qilib aytganda, qon shakar darajasini pasaytirishga yordam beradi. Shuningdek, u insulinning ko'payishi va xolesterinning kamayishiga yordam berishi ham kuzatilgan. 5. Davolovchi. Teri hujayraasida yallig'lanishga qarshi vosita sifatida foydalanishdan tashqari, kurkuma topikal ravishda ishlatilgan, chunki u antioksidant va biriktiruvchi ta'sirga ega. Yaraning yopilishiga yordam beradi. Masalan, kuyish uchun ishlatiladi. 6. Yurakni himoya qiladi, xolesterinni kamaytiradi, yurak xastaliklarining oldini oladi. Yallig'lanish va oksidlanishni kamaytiradi va yallig'lanishga qarshi va oksidlanishni kamaytirish orqali trombositlar agregatsiyasiga qarshi qobiliyatga ega. 7. Antibiotik xossaga ega. Yuqorida aytilganlarning barchasiga qo'shimcha ravishda, kurkuma antibiotik, antifungal va og'riq qoldiruvchi ta'sirga ega va

ba'zi infeksiyalar va parazitlarga qarshi kurashda yordam beradi.8. OIVga qarshi samarali vosita. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kurkuma va uning faol moddalaridan olingan mahsulotlar OIV bilan yashaydigan odamlar uchun foydali bo'lishi mumkin. OIV-1 ning integratsiyalashuviga ta'sir qilib, retrovirusning kengayishini sekinlashtirishga yordam beradi. 9. Ichak va jigarni himoya qiladi. Kurkuma, qisman yallig'lanishga qarshi, antioksidant va gipoglikemik faolligi, shuningdek, gepatoprotektiv xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli ovqat hazm qilish trakti faoliyati uchun foydalidir. 10. Kayfiyatni yaxshilaydi. Kurkumaning yana bir ajoyib xususiyati shundaki, u stress va depressiya darajasini pasaytirishga yordam beradi. Ba'zi gormonlarning neyrotransmissiyasini tartibga solishga hissa qo'shadi. Kurkuma asrlar davomida an'anaviy tibbiyotda ishlatilgan ziravor bo'lib, taxminan 4000 yildan buyon mavjud. Kurkuma butun dunyo bo'ylab tropik mintaqalarda o'sishi bilan bir qatorda insoniyat hayotidagi eng mo'jizakor, sershifo o'simliklardan biri sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

KURKUMA VA UNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Negmatova M. U., Amonova Z. X.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, Termiz, O'zbekiston

